

JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISHNING PRINSIPLARI*Namozov Baxodir Kuchkorovich**Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti*

Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishda ma'lum prinsiplarga amal qilinadi. Bu prinsiplar quyidagilardan iborat:

1. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari ushbu prinsipga to'la amal qilgan holda o'z faoliyatini tashkil qiladi.

2. O'z-o'zini boshqarish tizimlarida jismoniy tarbiyani tashkil qilish. Boshqarishning barcha organlari kabi sport tashkilotlarida ham o'z-o'zini boshqarish tizimlarida jismoniy tarbiyani tashkil qilish prinsipiga amal qiladi ya'ni, rahbarlar saylab qo'yiladi. Ular o'z jamoalari oldida hisobot beradi. Ozchilik ko'pchilikka bo'ysunadi. Ish va o'quv intizomi barcha uchun barobardir. Bu prinsiplarni amalga oshirishda faqat rahbar xodimlar emas, balki jismoniy tarbiya sohasidagi barcha xodimlar faollik ko'rsatishlari zarur.

3. Ilmiylik prinsipi. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishda erishilgan yutuqlar va ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, hayotga singdirish zarurati tug'iladi. Bunda ilmiy izlanish natijalari, yaratilgan texnik vositalar, asbob-uskunalar ilmiy boshqarishda yordam beradi.

4. Ob'yektiv (haqqoniylik) prinsipi. Jismoniy tarbiya va sport harakatining rivojlanishi ob'yektiv hisoblanadi. Bunga rahbarlik qilishda shu prinsipga amal qilishga to'g'ri keladi.

5. Aniqlilik prinsipi. Bu prinsipda erishilgan aniq yutuqlar tajribalar va mehnat faoliyatlarida qo'llaniladi. Har bir fakt va faoliyatni belgilash va uni amalga oshirishda kata ahamiyatga ega.

6. Optimallik (qulay, ma'qul) prinsipi. Bu prinsip bor imkoniyatlarni moliyaviy mablag'lar, moddiy texnika bazalarini hisobga olish va ulardan ratsional va effektli foydalanishni talab qiladi.

7. Davlat va jamoatchilik asosida ishlarni birga olib borish prinsipi. O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport tizimida davlat va jamoat organlarini o'qish va mehnat qilish faoliyatlari yuzasidan bir-biriga chambarchas bog'langan ya'ni, ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va ularni o'tkazish hamkorlikda olib boriladi. Bu sport tashkilotlari uchun mas'uliyatli kasb bo'lib hisoblanadi. Masalan: tuman, shahar miqyosida sport musoboqalari o'tkazish. O'z navbatida jismoniy tarbiya va sportni boshqarish tizimini ham strukturaviy jihatdan ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Buni quyidagi jadval misolida ko'ramiz:

Boshqaruv darajasi	Boshqaruv funksiyasi	Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari
Birinchi	Davlat siyosatini ta'minlash	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
Ikkinchi	Davlat dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish	Sport vazirligi
Uchinchi	Funksional vazifalar	Respublika sport federatsiyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengesi, Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O'zbekiston kasaba uyushmasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi

Mamalakatimiz aholisini jismoniy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash, ularga sharoitlar yaratib berish, O'zbekiston sportining mahoratini oshirishda ularga rahbarlik qilish uchun davlat organini belgiladi ya'ni, mamlakatda jismoniy tarbiya va sport ishlariga rahbarlik qilish uchun O'zbekiston sport vazirligi tashkil qilindi. Bu vazirlik barcha idoralar va jamoalardagi jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilish, boshqarish, aholi o'rtasida uni keng targ'ibot qilish ishlarini olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi sport vazirligi mamlakatda sport buyumlarini ishlab chiqarishni nazorat qilish, uni taqsimlash, sport bazalarini qurilishi, undan foydalanish, mutahassis kadrlar tayyorlash, kadrlarning malakasini oshirish kabi ishlar yuklatilgan. Barcha bosqichdagi sport boshqarmalari hududiy jihatdan davlat organlariga bo'ysunadi. Bu ob'yektiv ma'nosini beradi. Shu bilan birgalikda sport boshqarmalari o'z hududidagi barcha tashkilotlar uchun jismoniy tarbiya va sport masalalarida sub'yektiv vazifasini bajaradi. O'z navbatida sport boshqarmalari, "O'zbekiston yoshlar ittifoqi", sog'liqni saqlash, maorif, madaniyat va boshqa tshkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi. Bunda jismoniy tarbiya va sportga aholini jalb qilish, sport musoboqalarini rejalashtirish va o'tkazish sport komplekslarini va oddiy maydonlarni qurish, jamoatchi instruktorlar tayyorlash, shuningdek yetuk sportchilar (jamoalar) o'z burchlariga ega. Respublikada sport boshqarmalari o'quv yurtiga ega bo'lgan turli vazirliklar chambarchas holda ish olib boradi.

Kasaba uyushmalari faoliyatida madaniyat va sport, sog'liqni saqlash, maorif va boshqa sohalar kabi jismoniy tarbiya va sport hamda turizm alohida o'rin tutadi. Chunki mamlakatimiz aholisini dan olishi, hordiq chiqarishi va turli sport tadbirlarida ularning faol qatnashishiga bevosita yordam beruvchi tegishli sharoitlar yaratuvchi tashkilotlar hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport ishlarini yo'lga qo'yish, sport inshootlarini qurish, sog'lomlashtirish va sport oromgohlarini tashkil qilishda kasaba uyushmalari kata xizmat qilib kelmoqda. Natijada jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi kishilar ommasi butun aholining (ishga yaroqli) ma'lum qismini tashkil etadi. Bu esa jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi butun aholining yarmidan ko'pini tashkil etadi. Shu sababli mehnatkashlarga moddiy texnik bazalarini yaratib berish, jamoatchi instruktorlar, murabbiylar tayyorlash, sport musoboqalarini o'tkazish, aholi o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ibot qilish vazifalari kasaba uyushma tashkilotlarining zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston mustaqilligi davrida tashkil topgan dastlabki kunlaridanoq kasaba uyushma tashkilotlari mamlakatimiz aholisining sog'ligi, bilim olishi, turmush farovonligini yaxshilash bo'yicha g'amxo'rlik qiladi. Yirik kasaba uyushma tashkilotlarida sport klublar, sport jamoalari tashkil qilingan. Kasaba uyushmalar sport musoboqalarni alohida qilib o'tkazib kelmoqda. Bu faoliyatlar doimiy ravishda o'tkazilib borildi. Bu faoliyat har xil musoboqalarni tashkil qilish va o'tkazishga olib kelindi. O'tkazilgan sport musoboqalari kasaba uyushmalarga bo'ysunadi.

Musoboqalar o'tkazish uchun musoboqa nizomi tuziladi va unga amal qilinadi. Jismoniy tarbiya va sport rivojlanishida kasaba uyushma tashkilotlaridan tashqari turli tashkilotlar ham ishtirok etadi.

Adabiyotlar

1. Хусейн, Ш., Косимов, У., Намозов, Б., & Ашмуродов, К. (2018). РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА ПРИ ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ В ВУЗАХ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (4-6), 112-116.
2. Намозов, Б. К., & Муратов, М. Ш. (2021). ФОРМИРОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ. In *Актуальные аспекты медицинской деятельности* (pp. 312-316).
3. Khusainov Shamshidin Yalgashevich, Namozov Baxodir Kuchkarovich, & Eshmurodov Qodir Abriyevich. (2023). Research of Development of Physical Preparedness of University Youth. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences*, 2(11), 73–76. Retrieved from <https://procedia.online/index.php/philosophy/article/view/1136>
4. Khusainov Shamshidin Yalgashevich, Namozov Baxodir Kuchkarovich, & Eshmurodov Qodir Abriyevich,. (2023). The Importance of the Relationship of Different Types of Preparedness in Teaching-Technical and Tactical Actions of

- Students in Streetball. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 24, 19-21. Retrieved from <http://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/991>
5. Khusainov Shamshidin Yalgashevich, Namozov Baxodir Kuchkarovich, & Eshmurodov Qodir Abriyevich. (2023). Use of Games and Relay Races in Teaching Gymnastics at the Department of Physical Education and Sport. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(11), 44–47. Retrieved from <https://univerpubl.com/index.php/horizon/article/view/2770>
 6. Baxodir Kuchkarovich, N., & Qodir Abriyevich, E. . (2024). Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions As a Way to Preserve the Mental Health of Students. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(1), 593–596. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1492>
 7. Namozov Baxodir Kuchkorovich, & Eshmuradov Kodir Abriyevich. (2024). JISMONIY TARBIYA VA SPORT VOSITASI YORDAMIDA YOSHLARDA MILLIY G‘URUR TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 2(1), 658–660. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/4103>
 8. Kuchkorovich, N. B., & Yalgashevich, X. S. (2024). Bolalar va o‘smirlar tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportning o‘rni. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 2(1), 655-657.
 9. Shamshidin Yalgashevich, K. ., & Baxodir Kuchkarovich, N. . (2024). Sports in the Life of Students Samarkand State Architectural and Construction University. *World Journal of Agriculture and Urbanization*, 3(1), 45–47. Retrieved from <https://wjau.academicjournal.io/index.php/main/article/view/145>
 10. ХУСАИНОВ, Ш. Я., ЭШМУРОДОВ, К. А., & НАМАЗОВ, Б. К. (2017). РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ГИРЕВОГО СПОРТА В ЖИЗНИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ. In *Будущее науки-2017* (pp. 265-267).
 11. Yalgashevich, K. S. ., Abriyevich, E. Q. ., & Kuchkarovich, N. B. . (2023). THE APPLICATION OF THERAPEUTIC PHYSICAL CULTURE IN THE TREATMENT OF INJURIES OF THE LOCOMOTOR APPARATUS. *ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI*, 2(1), 154–160. Retrieved from <https://www.sciencebox.uz/index.php/arxitektura/article/view/5458>
 12. Makhmatkulov Ilkhom Turdimurodovich, Khusainov Shamshidin Yalgashevich, & Namozov Baxodir Kuchkarovich. (2023). INNOVATIVE SOLUTIONS FOR ORGANIZING THE CONSTRUCTION OF MULTIFUNCTIONAL SPORTS FACILITIES. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 37-41. Retrieved from <https://cajad.centralasianstudies.org/index.php/CAJAD/article/view/273>

13. Khusainov Shamshidin Yalgashevich, Eshmurodov Kadyr Abrievich, Namozov Bakhodir Kuchkarovich, & Kim Dinara Vladislavnovna. (2021). WRESTLING IS THE PAST AND FUTURE OF NATIONAL SPORTS. *World Bulletin of Management and Law*, 3, 26-30. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/137>
14. Yalgashevich, K. S., Kuchkarovich, N. B., & Abriyevich, E. Q. (2023). Results of Therapeutic Physical Culture with Students with Significant Health Impairments. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 2(2), 16-18.
15. Shamshidin Yalgashevich, K., Abriyevich, E. Q., & Kuchkarovich, N. B. (2023). Analysis of the Technique of Teaching the Jerk in Weightlifting. *Eurasian Research Bulletin*, 17, 121-128.